

## 2021- yil yanvar-sentabr oylarida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar

2021- yil yanvar-sentabr oylarida Jizzax viloyatida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 9 036,4 mlrd. so'm hajm o'zlashtirilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 98,2 % ni




### Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar

	<i>Jami, mlrd. so'm</i>	<i>O'sish sur'ati, % da</i>	<i>Jamiga nisbatan, % da</i>
<b>Jizzax viloyatida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar</b>	<b>9 036,4</b>	<b>98,2</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>			
<b>Markazlashgan investitsiyalar:</b>	<b>1047,0</b>	<b>122,8</b>	<b>11,7</b>
Byudjet mablag'lari	585,9	136,2	6,5
Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish	183,1	95,0	2,1
Tiklanish va taraqqiyot fondi mablag'lari	74,1	-	0,8

	<i>Jami, mlrd. so‘m</i>	<i>O‘shish sur‘ati, % da</i>	<i>Jamiga nisbatan, % da</i>
O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlari	203,9	88,8	2,3
<b>Markazlashmagan investitsiyalar:</b>	<b>7 989,4</b>	<b>95,7</b>	<b>88,3</b>
Korxonalar mablag‘i	3 318,1	249,7	36,7
Aholi mablag‘lari	609,4	98,3	6,7
To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlar	2 423,3	43,8	26,8
Tijorat bank kreditlari va boshqa qariz mablag‘lar	1 638,6	187,8	18,1


### Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar

2021- yil yanvar-sentabr (*jamiga nisbatan, % da*)




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning asosiy qismi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 1 688,4 mlrd. so'm yoki jami investitsiyalar ulushining 18,7 % ni, ishlab chiqarish sanoatida – 3 834,6 mlrd. so'm (42,4 %), qurilish – 296,3 mlrd. so'm (3,3 %), ulgurji va chakana savdo 674,6 mlrd. so'm (7,5 %), turar joy binolari qurilishiga - 396,9 mlrd. so'm (4,4 %) va boshqa faoliyat turlariga 2 145,6 mlrd. so'm (23,7 %) ini tashkil etdi.


**Markazlashgan investitsiyalar manbalari bo'yicha  
asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar  
2021- yil yanvar-sentabr (*jamiga nisbatan, % da*)**



**Markazlashmagan investitsiyalar manbalari bo'yicha  
asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar  
2021- yil yanvar-sentabr (jamiga nisbatan, % da)**




**Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida yuqorida ta'kidlab o'tilganidek ishlab chiqarish sanoati yetakchilik qilmoqda. Ushbu faoliyat turida jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 3 834,6 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 42,4 % i o'zlashtirilgan, ulgurji va chakana savdoga 674,6 mlrd. so'm yoki jami investitsiyalarning 7,5 % ga yo'naltirilgan.**



**Shahar va tumanlar kesimida  
asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar  
2021- yil yanvar-sentabr**

	<i><b>Jami, mlrd. so'm</b></i>	<i><b>O'sish sur'ati, % da</b></i>	<i><b>Jamiga nisbatan, % da</b></i>
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>9036,4</b>	<b>98,2</b>	<b>100,0</b>
Jizzax sh.	1907,5	91,1	21,1
<i><b>tumanlar:</b></i>			
Arnasoy	256,5	62,6	2,8
Baxmal	250,3	109,6	2,8
G'allaorol	287,0	107,0	3,2
Sharof Rashidov	793,9	100,8	8,8
Do'stlik	196,1	113,7	2,2
Zomin	927,3	104,9	10,3
Zarbdor	222,4	103,3	2,5
Zafarobod	1052,1	107,0	11,6
Mirzacho'l	433,4	100,1	4,7
Paxtakor	534,9	92,7	5,9
Forish	2067,5	101,1	22,9
Yangiobod	107,5	104,4	1,2

Shahar va tumanlar kesimida  
asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning  
jamiga nisbatan ulushi, %da




Asosiy kapitalga sarflangan investitsiyalarning yuqori o'sish sur'atlari quyidagi shahar va tumanda kuzatilgan: Do'stlik tumanida - 113,7 % (yoki 196,1 mlrd. so'm), Baxmal tumanida - 109,6 % (250,3 mlrd. so'm), Zafarobod tumanda - 107,0 % (1052,1 mlrd. so'm) G'allaorol tumanida 107,0 % (287,0 mlrd. so'm), Zomin tumanida 104,9% (927,3 mlrd. so'm).

**Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning  
texnologik tarkibi  
2021- yil yanvar-sentabr**


	<i>Jami, mlrd. so'm</i>	<i>Shu jumladan: mlrd. so'm</i>	
		<i>Davlat</i>	<i>Nodavlat</i>
<b>Jami investitsiyalar</b>	<b>9 036,4</b>	<b>855,0</b>	<b>8181,4</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Qurilish-montaj ishlari	2 498,7	731,3	1 767,4
Mashina, uskunalar va xo'jalik jihozlari	6 210,4	100,2	6 110,2
Boshqa harajatlar	327,3	23,5	303,8

**Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik  
tarkibi, (jamiga nisbatan, % da)**



Viloyat bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi investitsiyalarning qariyb 68,7 % ulushi mashina, uskunalar, transport vositalari ishlab chiqarish va xo'jalik jihozlariga to'g'ri keldi.

### Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar 2021- yil yanvar-sentabr (jamiga nisbatan, % da)



Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida asosiy kapitalga viloyat miqyosida xorijiy investitsiya va kreditlar 2 627,2 mlrd. so'm o'zlashtirilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 45,6 % ni tashkil etdi.

#### Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar

Joriy davrda 858,7 mlrd. so'm to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar o'zlashtirilgan bo'lib, jami xorijiy investitsiya va kreditlarning 29,1 % ulushini tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 28,2 % ni tashkil etdi.



**Asosiy kapitalga kiritilgan  
xorijiy investitsiya va kreditlar**
*(mlrd. so'm)*

	<i>Jami</i>	<i>Shu jumladan:</i>	
		<i>Davlat kafolati ostida</i>	<i>To'g'ridan-to'g'ri va boshqalar</i>

Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar	2 627,2	203,9	2 423,3
--	---------	-------	---------

*shu jumladan:*

<i>davlat</i>	29,7	29,7	-
---------------	------	------	---

<i>nodavlat</i>	2 597,5	174,2	2 423,3
-----------------	---------	-------	---------

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
asosiy kapitalga investitsiyalar**
*(mlrd. so'm)*

	<i>2020- yil yanvar-sentabr</i>	<i>Jamiga nisbatan, % da</i>	<i>2021- yil yanvar-sentabr</i>	<i>Jamiga nisbatan, % da</i>
--	---------------------------------	------------------------------	---------------------------------	------------------------------

<i>Jami</i>	<b>9154,4</b>	<b>100,0</b>	<b>9036,4</b>	<b>100,0</b>
-------------	---------------	--------------	---------------	--------------

*Shu jumladan: iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha:*

<i>Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</i>	868,2	9,5	1688,4	18,7
---	-------	-----	--------	------

	2020- yil yanvar- sentabr	Jamiga nisbatan, % da	2021- yil yanvar- sentabr	Jamiga nisbatan, % da
<i>Togʻ–kon sanoati</i>	413,8	4,5	726,2	8,2
<i>Ishlab chiqarish sanoati</i>	3393,8	37,1	3834,6	42,4
<i>Elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash</i>	57,9	0,6	202,1	2,2
<i>Suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilizatsiya qilish</i>	327,1	3,6	371,6	4,1
<i>Qurilish</i>	221,4	2,4	296,3	3,3
<i>Ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari, mototsikllarni taʼmirlash</i>	431,4	4,7	674,6	7,5
<i>Tashish va saqlash</i>	123,5	1,3	141,6	1,6
<i>Yashash va ovqatlanish boʻyicha xizmatlar</i>	5,3	0,1	9,2	0,1
<i>Axborot va aloqa</i>	43,6	0,5	25,1	0,3
<i>Moliyaviy va sugʻurta faoliyati</i>	21,4	0,2	13,2	0,1
<i>Professional, ilmiy va texnik faoliyat</i>	69,1	0,8	153,3	1,7
<i>Taʼlim</i>	169,5	1,9	127,4	1,4

	<i>2020- yil yanvar- sentabr</i>	<i>Jamiga nisbatan, % da</i>	<i>2021- yil yanvar- sentabr</i>	<i>Jamiga nisbatan, % da</i>
<i>Davlat boshqaruvi va mudofaa; majburiy ijtimoiy ta'minot</i>	435,0	4,8	82,9	0,9
<i>Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish</i>	97,9	1,1	142,8	1,6
<i>Boshqa iqtisodiy faoliyat turlaridan tashqari: turar joy binolari qurilishiga investitsiyalar</i>	435,1	4,7	396,9	4,3
<i>San'at, ko'ngil ochish va dam olish</i>	19,6	0,2	37,8	0,4
<i>Boshqa faoliyat turlari</i>	2020,8	22,0	112,4	1,2


### **Ijtimoiy soha obyektlari**

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida umumiy maydoni 411,9 ming kv.m bo'lgan 2453 ta uy yoki 2453 ta kvartira, shu jumladan qishloq joylarida 277,8 ming kv.m 1590 ta uy-joy foydalanishga topshirildi.



## Foydalanishga topshirilgan turar joylar (ming kv.m)

(2021- yil yanvar - sentabr oylari)



Joriy yilning 3 oy davomida tumanlar ichida eng ko'p foydalanishga topshirilgan turar joylar Sharof Rashidov tumaniga to'g'ri keldi, uylar soni bo'yicha 47 tani, qurilish osti maydoni esa 9,1 ming kv.m keyingi o'rinda Zomin tumani, uylar soni 58 tani, qurilish osti maydoni 7,0 ming kv.m.



**Investitsiyalar va qurilish  
statistikasi bo'limi**

**Aloqa telefoni:**

**(99872) 221-53-73**